Abu Hafs ilmiy mehnat va tizimli o‘qishni amaliy hayot bilan uyg‘unlashtirgan, ilohiy in’om orqali keladigan ilhomiy bilimni ajratgan. Manbalarda uning ibodatdagi sobitligi, ilmni ruhiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirgani va kasb-hunar bilan shug‘ullangani qayd etiladi. Imom Zarnujiy esa uning kosibchilik qilgani va ilmlarini doim takrorlagani haqida yozgan [8].

Bilimning amaliy hikmatga aylanishi Abu Hafs ta’limotining markaziy g‘oyalaridan biridir. Ilm faqat intellektual boylik bo‘lib qolmay, balki komil axloqiy fazilatlar shakllanishiga singishi lozim deb hisoblanadi [4]. Rivoyatlarda unga kelgan talabalar nafaqat ilm o‘rgangan, balki ma’naviy jihatdan ham yetuklik darajasiga erishgan. Bu esa ilmning aql va ruhni qayta shakllantiruvchi ma’naviy kuch sifatida talqin etilganini ko‘rsatadi.

Ustoz-shogird munosabatini yozma meros bilan uyg‘unlashtirish pedagogik tamoyilining ajralmas qismi bo‘lgan. Matnni mustaqil bilim manbai sifatida emas, intellektual va ruhiy tajribaning uzviy davomchisi sifatida talqin qilgan. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo madrasalari nafaqat nazariy bilim beradigan, balki intellektual, ruhiy va axloqiy yetuklikni shakllantiruvchi ilmiy-madaniy makon sifatida rivojlangan.

Xulosa. Abu Hafs al-Kabirning ilm haqidagi qarashlari uni faqat fiqhiy yoki tasavvufiy kategoriyalar bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Ilm uning ta’limotida intellektual izlanish, axloqiy takomil va ruhiy yetuklikni bir vaqtning o‘zida qamrab oluvchi murakkab fenomen sifatida talqin etiladi.

Ilm nafaqat nazariy bilim, balki insonning mavjudligini o‘zgartirish, jamiyatga xizmat qilish va ma’naviy yetuklikka erishish bilan bog‘liq jarayon sifatida tushuniladi. Faqat fiqhiy hukmlarni yod olgan, ammo axloqiy tarbiya va ruhiy anglashdan mahrum shaxs to‘liq bilim egasi hisoblanmaydi. Abu Hafs yondashuvi ilmni axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy foyda bilan uyg‘unlashtiradi va uning intellektual va ma’naviy mohiyati jamiyatga xizmat qilishda namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy tadqiqotlar Abu Hafs ta’limotining islom intellektual tarixidagi davomiy ahamiyatini, ilmning maqsadi, ishonchliligi va uzatilishi hamda ruhiy o‘zgarish jarayonlari bilan bog‘liqligini yoritadi [3]. Bu yondashuv ilmni qat’iy nazariy tayyorgarlik, axloqiy shakllanish va ruhiy yetuklikning uzviy va bir vaqtning o‘zida kechadigan jarayoni sifatida tushuntiradi. Shu ko‘p qirrali yondashuv Abu Hafsni fiqh ilmining yetakchi namoyandasi va ilohiy haqiqatga yo‘naltirilgan izlanishlar orqali insonning ma’naviy taraqqiyotini ta’minlashga doir muhim mutafakkir sifatida ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Dr. Abdul Razzoq Ahmad Vodi al-Samarrai. مشيخة ومدرسة أبي حفص الكبير في بخارى [Buxorodagi Abu Hafs al-Kabir shayxligi va madrasasi], august. 2018.

(2). Asrorova, Lobar. Abu Hafs Kabir Buxoriy va hanafiy fiqhi. L.Asrorova. Toshkent, Islom universiteti, 2014, 3–4-betlar.

(3). Yılmaz Okan Kadir. A Missing link the Emergence of Hanafi Fatwa Literature: Abu Hafs al-Kabir (d.217/832) and his Masa’il. Marmara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi 65, no. 65 (December 2023), 41–60-s. https://doi.org/10.15370/maruifd.1376748

(4). Urol Nazar Mustofo. Abu Hafs Kabir al-Buxoriy haqida nimalarni bilasiz? https://buxoroisharif.uz/10501/

(5). Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафат ул-қулуб. Тошкент, “Адолат”, 2002, с. 337.

(6). Факих Абул Лайс ас-Самарканди. Табех ул-гофилийн (книга вторая). Ташкент, “Мовароуннахр”, 2001, с. 223.

(7). Абу Бакр Муҳаммад ибн Жафар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А.Расулов таржимаси. Тошкент, “Фан” нашриёти, 1966, 46-бет.

(8). Imom Zarnujiy, Ilm olish sirlari. Tarjimon Zokirjon Sharifov. Toshkent, “Movarounnahr”, 2004, 35-bet.

Xoliqov Yunus Ortiqovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori (DSc); xolikovyunus88@gmail.com)

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLATLARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya. *Maqolada millatlararo hamjihatlik g‘oyasiga nisbatan O‘zbekiston zaminida barcha elatlarning yakdil bo‘lib, milliy g‘oya asosida faoliyat yuritayotganligi, bu atamaning mazmun-mohiyati hamda ijtimoiy tuzilmadagi qaror topish tamoyillariga chuqur diqqat qaratilgan. Aynan shu sababdan dunyoda ayni vaqtda millatlar orasida turli nizolar avj olayotgan bir davrda, bizning yurtda bu yangilanishlar tajribali, dono, aql-zakovatli xalqimizning pand-nasihatlari asosida olib borilayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so'zlar: *tadqiqot, globalizatsiya, globallashuv, milliy, madaniy, qadimiy, umuminsoniy, global, ta'lim-tarbiya, diniy, axloqiy, turmush tarzi.*

Холиков Юнус Ортикович (Самаркандский государственный институт иностранных языков, Профессор кафедры гуманитарных и информационных технологий; доктор философии (DSc)

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ МЕЖЭТНИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматривается идея межнациональной гармонии, тот факт, что все народы Узбекистана едины и действуют на основе национальной идеи, сущность этого понятия и принципы поиска решений в социальной структуре. По этой причине показано, что в условиях нынешних конфликтов между народами мира эти инновации осуществляются в нашей стране по совету наших опытных, мудрых, интеллигентных людей.*

Ключевые слова: *исследования, глобализация, национальная, культурная, древняя, универсальная, глобальная, образование, религиозная, моральная, образ жизни.*

Kholikov Yunus Ortiqovich (Samarkand State Institute of Foreign Languages, Professor of the Department of Humanities and Information Technologies; Doctor of Philosophy (DSc)

FACTORS OF DEVELOPMENT OF INTERETHNIC RELATIONS IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION

Annotation. *The article focuses on the idea of interethnic harmony, the fact that all peoples of Uzbekistan are united and act on the basis of the national idea, the essence of this term and the principles of finding solutions in the social structure. For this reason, it is shown that at a time when various conflicts are currently raging among nations in the world, these innovations are being carried out in our country based on the advice of our experienced, wise, intelligent people.*

Keywords: *research, globalization, globalization, national, cultural, ancient, universal, global, education, religious, moral, lifestyle.*

Kirish. Hozirgi kunda jahon miqyosida kechayotgan hodisalarga u yoki bu ko'rinishda o'z ta'sirini singdirib borayotgan globallashuv g'oyasi ijtimoiy-falsafiy va siyosiy tushuncha (konsept) o'laroq, zamonaviy dunyo nazariyotchilari va mutaxassislari tomonidan tasdiqlanmoqda. XX asrning yakunida akademik manbalarda globallashuv atamasi zikr etila boshlandi va bu hodisa yuzasidan xilma-xil qarashlar katta jamoa orasida munozara qilina boshlandi. Mazkur o'zgarishlar oqibatida falsafa, siyosatshunoslik, ijtimoiy bilish, madaniyatshunoslik kabi bilim sohalari zimmasiga ushbu jarayonni chuqur o'rganish, ijtimoiy hayotning barcha qatlamlariga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash, nihoyat, uning ijobiy yoki noxush mazmunini belgilash mas'uliyatini yukladi.

Adabiyotlar tahlili. To'g'ridan to'g'ri o'rganishni maqsad qilgan muammoimiz, ya'ni, globallashuv (globalizasiya) muhitida millatlararo aloqalarni ta'minlashning asosiy (ustuvor) jihatlarini tahlil qilish va nazariy natijalarni taqdim etish dolzarbdir. Aynan shu o'rinda "millat" atamasiga e'tiborimizni jamlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyo yuzida uch mingdan ortiq millatlar bor. 130 dan ziyod millat va elatlar istiqomat qiladigan O'zbekiston Respublikasida barcha xalqlarning teng sharoitda hayot kechirishi, mehnat qilishi va boshqa imkoniyatlarga ega bo'lishi uchun mustahkam huquqiy asos yaratish davlat rivojlanishini yuqori pog'onaga ko'taruvchi omil sanaladi. Chunki jamiyatda millatlar soni qancha ko'p bo'lsa, shunchalik rang-baranglik vujudga keladi. Globallashuv hodisasining ijobiy jihatlaridan biri shundaki, millatlararo muloqot va axborot almashinuvi mamlakat doirasida yoki davlatlar o'rtasidagi madaniyatlar ayirboshlanishi bilan bir paytda amalga oshadi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, globallashuv (globalizasiya) hodisasi kechayotgan bugungi dunyoda ko'pmillatli mamlakatning bosh vazifalaridan biri millatlar orasidagi aloqalarni kafolatlashni strategik ahamiyatga ega masala deb bilishi bilan belgilanadi. Hukumat millatlar va elatlar o'rtasidagi ijobiy munosabatni yo'lga qo'yadi, uni qo'llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy munosabatlarda milliy shaxsiyatni anglash bilan birga xalqlar va millatlararo manfaatlarni inobatga olish, barcha millatlarning teng huquqliligini ta'minlash hamda milliy tillar va madaniyatlarning erkin faoliyatini kafolatlaydi. Yaqin tariximizga nazar solsak, sobiq Sovet Ittifoqi davrida millatlar o'rtasidagi aloqalar o'sha davlatda yashovchi xalqlarning tenglik asosiga qurilmaganligini ko'plab misollar yordamida aytish mumkin. "Milliy munosabatlar sohasidagi achchiq tajriba shuni ko'rsatadiki, yutuqlarni hadeb maqtashga berilib ketish, ayniqsa, sobiq sovet hokimiyati yillarida milliy masalani hal etish sohasidagi erishilgan muvaffaqiyatlarni ko'kka ko'tarib maqtayverish bu sohadagi nafaqat mavjud muammolarni, shuningdek, sobiq SSSRda totalitar sotsialistik jamiyat qurish yillarida yangi muammolarning ham yuzaga kelishiga sabab bo'lgan edi" [3;109-b.].

Muhokama. Alohida qayd etish zarurki, globallashuv davrida millatlararo aloqalarni kafolatlash, avvalo, milliy muammo, ya'ni, xalqlar o'rtasidagi tengsizlik, turli elatlarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajalari nomutanosibligi, yuqori rivojlanishga erishgan millatlar va orqada qolayotgan xalq o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq. Bu holat millatlar orasida dushmanlik va qarama-qarshiliklar muhiti yuzaga kelmasligiga asos yaratib, xalqlarning iqtisodiy va madaniy boyliklardan foydalanishdagi notengligining oldini oladi. Milliy masala doimo aniq bir tarixiy va ijtimoiy mazmunga ega bo'lib, ayni paytda muayyan bir mamlakat rivojining ma'lum bosqichidagi milliy muammolarning xususiyatini o'z ichiga oladi. Milliy munosabatlarning o'ziga xos mohiyati shundaki, u davlat va unda yashovchi millatlarning tarixiy kamolotidagi o'ziga xos jihatlarni, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzilishidagi noyob tomonlarni, aholining etnik tarkibini, tarixiy va milliy an'analarini aks ettiradi. Shunga qaramasdan, milliy savolga to'liq javob topish, uning so'nggi yechimini belgilash murakkab mas'uliyatdir. "Millatlar-davlatlar o'zlarining afzalliklarini shahar-davlatlar va eski imperiyalarning zamonaviy merosxo'rlariga nisbatan ustunliklarini isbotladilar. Davlatning bunday global muvaffaqiyati, birinchi navbatda, zamonaviy milliy davlatchilikning afzalliklari bilan bog'liq. Davlatning shakllanishi haqida gapirishdan oldin, har ikkala tarkibiy qism haqida alohida to'xtalish joiz. Ya'ni, biz davlat va millat sifatida nimani tushunayotganimizni anglab yetmog'imiz joiz [4;154-b.]. Hozirgi paytda barcha elatlar milliy mamlakatlarda istiqomat qilmoqdalar; ular shunday davlatning tashkiliy yaxlitligi uchun muhimdir.

Zamonaviy davlatlarda "mamlakat" so'zining "millat" atamasi bilan yonma-yon ishlatilishi bunga misol bo'la oladi. Aynan mazkur ikki termin, ya'ni, hozirgi zamon davlati va hozirgi zamon millati tushunchalarining birlashuvi natijasida "milliy davlat" tushunchasi qaror topdi. Biz, odatda, huquqiy va siyosiy maqomi jihatidan inson va millat atamalarini bir-birining o'rnini to'ldiruvchi, o'zaro almashtiruvchi tushunchalar sifatida qo'llaymiz. Bu, aslida, ijobiy yondashuvdir. Yuqorida qayd etganimizdek, "millat" atamasi o'zining yuridik va siyosiy ma'nosidan tashqari, kelib chiqishi, madaniyati, tarixiy yaxlitligi mezonlari asosida shakllangan jamoa, ko'pincha, yagona tilni ham anglatadi. Ijtimoiy tuzilma a'zolari ijtimoiy hayotning o'ziga xos bir ko'rinishi sifatida umumiy bir millatni vujudga keltiradi. "Yevropaning g'arbiy va shimoliy qismidagi klassik milliy davlatlar mavjud hududiy davlatlar doirasida shakllangan. Boshida Italiya va Germaniya, keyinchalik, markaziy va sharqiy Yevropa mamlakatlari ushbu yo'lni tutganligining sababi shundaki, bu yerda davlatning shakllanishida milliy ong katta rol o'ynadi, o'z navbatida, millat umumiy til, umumiy tarix va madaniyat atrofida rivojlandi" [5;154-b.]. Millatlararo aloqalar turli xalqlar, elatlar va etnik jamoalarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladi. Aniqroq aytganda, ular orasidagi iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va ruhiy munosabatlar shaklida shakllanib rivojlanib boradi. Bunda ular o'rtasidagi teng huquqlilikni, muvozanatni hamda yakdillikni saqlab qolish o'ta muhimdir. Shunday sharoitda ijtimoiy tuzilmaning asosiy qismi hisoblangan millatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy talablarini qondirish, shuningdek, jamiyatda millatlararo munosabatlarga doir jarayonlarni baholash, kuzatib borish va kerak bo'lganda qarorlar qabul qilish katta ahamiyat kasb etadi [6;7-b.]. Mazkur muammolarning ijobiy yechim topishi ijtimoiy hayotda kechadigan hodisalarni tahlil qilish, qarama-qarshi vaziyatlar paydo bo'lganda ularni bartaraf etish imkoniyatini taqdim etadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda millatlararo munosabatlarning turli mintaqalarda keskinlashuvi yangilik bo'lmay qoldi. Buning sabablarini esa biz yuqoridagi fikrlarimizda bayon qilib o'tdik. Shu va shunga o'xshash mojarolarni bizning mintaqamizda bo'lmasligi uchun nimalarga e'tibor berishimiz lozim, degan o'rinli savol tug'iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, "Маънавият", 2008, 111-бет.

(2). Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш, юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т., 2017, 25-бет.

(3). Отамуратов С. Глобаллашув ва миллат. Т., "Янги аср авлоди", 2008, 109-бет.

(4). Хабермас Юрген. Европейское национальное государство: его достижения и пределы. О прошлом и будущем суверенитета и гражданства (текст статьи). Нации и национализм. М., "Праксис", 2002, с. 154.

(5). Хабермас Юрген. Европейское национальное государство: его достижения и пределы. О прошлом и будущем суверенитета и гражданства (текст статьи). Нации и национализм. М., "Праксис", 2002, с. 154.

(6). Yunus Ortikovich Kholikov. (2021). Philosophical Fundamentals Of The Culture Of Tolerance. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(09), p. 48–51.

(7). Kholikov Y.O. Issues of education of youth on the ethical basis of international culture and tolerance at the age of globalization. Philosophical Readings. 2021, t. 13, №. 4, 1917–1922.